Rashidov Abror Ro‘zimurod o‘g‘li
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston miliy universiteti
Jizzax filiali “Ijtimoiy va iqtisodiy fanlar” kafedrasi assistenti

Email: rashidov.a.r1991@gmail.com
Tel: +998 90 485 92 91

Qarshiboyev Ziyodbek Sunatulla o‘g‘li
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali talabasi

Email: ziyodbekqarshiboyev@gmail.com

O‘ZBEKISTONING KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYALARNING O‘RNI

Annotatsiya : Ushbu maqolada Hozirgi kunda har bir davlatni rivojlangan davlatlar qatoriga tezroq qo‘shishga qodir bo‘lgan sohalardan biri bu tadbirkorlik, shu bois biz O‘zbekistonda tadbirkorlik va kichik biznesni yanada rivojlantirib hozirgi bozor iqtisodiyoti davrida iste’molchilarga keng assortimentdagi tovarlarni yetkazib berish va shu bilan birga eksport salmog‘ini oshirish orqali yalpi ichki mahsulot ulushini oshirish.

Kalit so‘zlar: Innovatsiya, kapital, innovatsion jarayon, ishlab chiqarish omillari, innovatsion strategiya, kichik biznes, rivojlantirish strategiyalari.

Abstract : In this article, entrepreneurship is one of the areas that can quickly join each country to the ranks of developed countries, so we will further develop entrepreneurship and small business in Uzbekistan in the current market economy, and deliver a wide range of goods to consumers and thus increase the share of the gross domestic product by increasing the weight of exports.

Key words: Innovation, capital, innovation process, production factors, innovation strategy, small business, development strategies.

Kirish. Bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy omillaridan biri kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishdir. Kichik biznes faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar davlatga bog'liq bo'lmagan holda, ya'ni katta kapital mablag'larsiz o'zlari ish joylarini joriy etishlari, vaqtinchalik mavjud bo'lgan tovarlar tanqisligini kamaytirishlari va, hattoki, bu tanqislikni butunlay yo'qotishlari mumkin. Hozirgi jamiyatimizda kichik korxonalar faoliyatini ayrim kishilarning ehtiyojlarini qondirish sari yo'naltirish zarur. Bu narsa maishiy xizmat ko'rsatish hamda xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarish sohalarida yaqqol ko'rinmoqda. Kichik korxonalar texnologiya yangiliklarini joriy etishda ham g'oyat katta ahamiyatga ega.

Hozirgi vaqtda innovatsiyalar iqtisodiyotni rivojlantirishning eng xarakterli xususiyatlaridan biriga aylanib bormoqda. Yaqinda bu nom ekzotik, noma'lum va hatto professionallar orasida ham unchalik aniq bo'lmagan narsani eslatardi, ammo endi innovatsiyaning o'zi ham, uning tushunchalari ham dunyoni tezda zabt etmoqda. Innovatsion jarayonda jiddiy rol o'ynaydigan va innovatsiyalarni korxonalar uchun strategik resursga aylantiradigan xalqaro kapital bozori kengayib bormoqda, bu borada unga yangi moliyaviy tuzilmalar unga yordam bermoqda. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, innovatsiyalarga ko'pincha odamlarning bevosita salbiy munosabati va pozitsiyasi to'sqinlik qiladi. Biroq, O'zbekistonda paradoksal vaziyat rivojlanmoqda, ya'ni butun jamiyat innovatsion jarayonlarga ijobiy munosabat va qo'llab-quvvatlashni bildirayapti.

Xususan, O'zbekistonda qabul qilingan ko'plab normativ-huquqiy hujjatlar ва ижтимоий тармоқларда кенг муҳокамага қўйилган қонун лойиҳаларида o'z aksini topgan. Prezident farmoniga muvofiq 2022–2026-yillarda O'zbekistonning innovatsion rivojlanish strategiyasi tasdiqlandi.

Strategiyaning asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

• innovatsion infratuzilma subyektlari (innovatsion texnologik park, texnologiyalar transferi markazi, innovatsion klaster, venchur tashkiloti, innovatsiya markazi, startap akselerator, inkubator) tarmog‘ini shakllantirish orqali startap tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash hamda yirik hajmli ishlab chiqarishni (kapital yaratish) tashkil etish;

• innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish orqali innovatsion faol tashkilotlar ulushini oshirish;

• kichik tadbirkorlikning innovatsion faolligini oshirish orqali hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy jadal o‘sishini ta’minlash;

• yangi turdagi mahsulotlar va innovatsion texnologiyalar yaratishning g‘oyadan yakuniy iste’molchigacha bo‘lgan kompleks tizimini ta’minlash orqali innovatsiyalarga bo‘lgan talabni rag‘batlantirish;

• yaratilgan kapitalni “tubdan yangilovchi” innovatsiyalarga qayta yo‘naltirish tizimini shakllantirish;

• ta’limning barcha bosqichlarida yaratuvchanlik, innovatsion tadbirkorlik va ratsionalizatorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali innovatsion faoliyat boshqaruvida inson kapitalini yanada rivojlantirish.

Bundan tashqari, innovatsion faoliyat subyektlari (sanoat ishlab chiqarish tashkilotlari) sonini 613 tadan 2 250 tagacha yetkazish, innovatsion infratuzilma subyektlari sonini 3 baravarga oshirish, innovatsion tadbirkorlik natijasida yaratiladigan yangi ish o‘rinlari sonini 4 baravarga oshirish maqsad qilingan.

Shuningdek:

• ichki va tashqi bozorlarda tijoratlashtirish natijasida yaratiladigan yangi innovatsion ishlanmalar sonini 2 baravarga oshirish;

• innovatsion markazlar sonini 494 tagacha yetkazish;

• texnologik innovatsiyalar bilan shug‘ullanuvchi mahalliy sanoat korxonalari sonini 600 tagacha yetkazish;

• hududlarda yaratiladigan yangi texnologiyalar sonini 384 tagacha oshirish;

• hududlarda yillik ro‘yxatga olingan patentlar sonini 184 tagacha yetkazish;

• xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan ilmiy, innovatsion va texnologik loyihalar sonini 183 tagacha oshirish;

• innovatsion startaplar sonini 1 437 tagacha yetkazish ko‘zda tutilmoqda.

Shuningdek, innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armalari tashkil etiladi. Strategiya O‘zbekistonni Global innovatsion indeks reytingi bo‘yicha jahonning 56 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishini bosh maqsad qilgan.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili.

Ayrim mualliflarning fikricha, an’anaviy iqtisodiyot ham, boshqa asosda rivojlanayotgan yangi iqtisodiyot ham mavjud. Bizning fikrimizcha, bu ikki modelni qaramaqarshi qo‘ymasdan ikkalasining ijobiy tomonlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi, chunki an’anaviy iqtisodiyot zamirida yangisi asta-sekin rivojlanib borishini namoyish etadi.

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida innovatsion-investitsion faoliyatning ustuvor yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni ko‘rishimiz mumkin:

— korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish;

— eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalarning tashqi bozorlarda raqobatdosh bo‘lishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish va eksportni rag‘batlantirish uchun qo‘shimcha omillar yaratish;

— ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirishni rag‘batlantirish hisobidan real sektor korxonalarining raqobatdoshligini oshirish;

— elektroenergetika tizimini modernizatsiya qilish, energiya iste’molini kamaytirish va energiya tejashning samarali tizimini joriy etish choralarini amalga oshirish;

— ichki bozorda talabni rag‘batlantirish orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash.

Albatta, milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash, uning raqobatbardoshligini oshirishda innovatsiyalarning o‘rni beqiyos. Lekin mamlakatda innovatsiya faoliyatining tashkil etilishi va rivojlanishi uchun quyidagi shartlarning mavjud bo‘lishi va bajarilishi talab etiladi:

— davlat innovatsiya siyosati – O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati organlari tomonidan mamlakatning innovatsion strategiyasi maqsadlari va ustuvor innovatsion dasturlar va loyihalarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining ishlab chiqilishi va belgilanishi;

— innovatsiya sohasi – innovatsiyalarni yaratish va tarqatishni o‘z ichiga qamrab oluvchi innovatsiya mahsulot (ish, xizmat)larini ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilarning faoliyat sohalari;

— innovatsiya infratuzilmasi – innovatsiya faoliyatining amalga oshirilishiga imkon beruvchi, ta’sir ko‘rsatuvchi turli muassasalar;

— innovatsiya dasturi (korxona, tarmoq, hudud, davlat, mintaqa, davlatlararo) – innovatsiya loyihalari resurslari, ijrochilari va ularni amalga oshirish muddatlari bo‘yicha kelishilgan hamda yangi turdagi mahsulotlarni o‘zlashtirish va joylashtirish bo‘yicha vazifalarning samarali hal etilishini ta’minlovchi innovatsion loyihalar va tadbirlar kompleksi.

Innovatsiyalarni loyihaviy moliyalashtirishning bir necha turlari mavjud. Loyihaning o‘zining, uning ishtirokchilarining kredit qobiliyati, ularning kreditni uchinchi shaxslar tomonidan to‘lash kafolatlari hisobga olinmagandagi yashash qobiliyatiga asoslangan molyailashtirish asosiy bo‘ladi. Loyihani amalga oshirish natijasida generatsiyalanadigan aul oqimlari qarzni to‘lashning manbai bo‘luvchi investitsiyalarni moliyalashtirishni uchinchi tur deb hisoblash mumkin. Moliyalashtirishning shunday turi uchinchi deb hisoblanadiki, bunda ham loyihani amalga oshirish natijasida generatsiyalanadigan naqd mablag’lar oqimlari va ham korxona aktivlari kreditni ta’minlanishi bo‘lib xizmat qiladilar.

Tadqiqot metodologiyasi.

Bugungi kunga kelib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari mamlakatimiz iqtisodiyotining barcha jabhalarida, mashinasozlik mahsulotlari ishlab chiqarishda, xalq iste'moli mollarini, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda hamda boshqa sohalarda faoliyat ko'rsatmoqda.

Shu o'rinda, milliy iqtisodiyotning raqobatdoshligini oshirish va dunyo bozorlariga chiqish, birinchi navbatda iqtisodiyotni izchil isloh etish, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxona va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta'minlash hisobidan amalga oshirilishi mumkin. Boshqacha so'z bilan aytganda, innovatsiya faoliyatini rivojlantirmay turib, iqtisodiyot raqobatbardoshligiga erishib bo'lmaydi. Innovatsiya atamasining mazmunidan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, qachonki har qanday kashfiyotlar, yangi voqealar, xizmatlar va usullar turlari tarqalishiga qabul qilinsa, o'shanda xalq ommasi tomonidan tan olinadi. Bunda yangilikning joriy etilishi yangilikni qo'llash jarayonini bildiradi va yangilikning tarqatilishiga qabul qilinishi vaqtidan boshlab yangi sifat – innovatsiyaga aylanadi.

Tahlil va natijalar.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari ishlab chiqargan mahsulot davlat korxonalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan sifati jihatidan qolishmasligi va, hatto, ayrim hollarda ulardan yuqori turishi bilan ajralib turadi. Respublikamizdagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatining 60-70 foizi bevosita ishlab chiqarish bilan uzviy bog'langan, ular fermerlar, dehqonlar, sanoatchilar va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchilar va hokazolardir.

Xususiy tadbirkorlik, kichik biznesni jadal rivojlantirish asosida mulkdorlar sinfini shakllantirish, tegishli institutlar tizimini tashkil etish, kichik va xususiy tadbirkorlik faoliyati sohasiga kredit resurslarini keng jalb qilish va xorijiy sarmoyalar olib kirish uchun maqbul sharoit yaratib berilgan.

Kichik korxonalar yirik kompaniyalarga nisbatan ular bozor sharoitiga tez moslashadilar hamda ishlab chiqargan mahsulotlarini bozorda muvaffaqiyatli o‘tishini ta’minlashda bir qancha ustunliklarga ega. Chunki, kichik korxonalar o‘z faoliyatlarini tor ishlab chiqarish dasturlariga, ilg’or texnologiyaga, kam turkumli ilm-fan talab qiladigan mahsulotlar chiqarishga tezda moslaydilar hamda bozor asoslarini tez o‘zlashtirib boradilar.

Ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaxshilash sohasida – tadbirkorlik faoliyati sohasi qonunchiligini yanada takomillashtirish, tadbirkorlik sub'yektlarini ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash, tadbirkorlik faoliyati sohasida qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarning amaliyotga joriy etilishi ustidan jamoat ekspertizasini tashkil etish va jamoat nazoratini kuchaytirishga keng jalb qilish

Xulosa va takliflar.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida xususiy tadbirkorlik, kichik biznes faoliyati bilan shug’ullanuvchi korxonalar iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida tashkil etilmoqda. Shu bilan kichik korxonalarning iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyati ortib bormoqda. Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati quyidagilar bilan tavsiflanadi:

- xususiy tadbirkorlik bozor iqtisodiyoti sharoitida zarur tezkorlikni ta’minlab, ishlab chiqarishdagi chuqur ixtisoslashuv va tarmoqlashgan kooperastiyani yaratadi, bularsiz yuksak samaradorlikni ta’minlab bo‘lmaydi;
- bozor uchun zarur bo‘lgan raqobatchilik muhitini yaratadi hamda o‘zgarib turadigan bozor talabiga moslab tezda ishlab chiqarish turini o‘zgartirib olish qobiliyatiga ega ekanligi bilan ajralib turadi;
- iste’molchilik sohasida yuzaga keladigan bo‘shliqni tezda to‘ldirishga qodir bo‘lib, eng zamonaviy mashina uskunalari va texnologiyadan foydalanib sarflangan sarmoyaning o‘rnini juda tez qoplay oladi.

Kichik biznes va xususiy tabdirkorlikning xususiyatlari (muomala kapitalining kichikligi, uning tez aylanuvchanligi, ishlab chiqarish vositalarini tezda almashtirish imkoniyatlari va b.) uning bir qancha afzalliklarga ega bo‘lishi imkoniyatlarini yaratadi:

- izlanish, yangi mahsulotlarni maromiga etkazish va o‘zlashtirish, ularni talabning tez o‘zgarib turishi xatarini hisobga olgan holda kichik uyushmalarda ishlab chiqarish;
- tezkor texnik servisning ishonchliligi va iste’molchilar bilan mustahkam aloqalar o‘rnatish;
- ishlab chiqarishni moslashuvchan tarzda tashkil etish va mahsulot sotishni bozor talablariga hamda bozor vaziyatlari o‘zgarishlariga muvofiq olib borish;
- ortiqcha ish kuchini o‘ziga singdirish;
- boshqarishning oddiyligi, katta ma’muriy apparatning yo‘qligi, qurilish va loyiha quvvatlarini o‘zlashtirishda qisqa muddat, kapital sarflarining tez o‘zini oqlashi, kapital aylanmasida yuqori tezlik;
- xom ashyo va mehnat resurslari, ishlab chiqarish chiqindilaridan to‘liqroq va samaraliroq foydalanish.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni hamda u bilan bog’liq barcha narsalar zamonaviy ijtimoiy ishlab chiqarish tashkiliy tuzilmasini muhim va tarkibiy qismini tashkil etadi. Shuning uchun ham davlatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka muhim o‘rin ajratilib, ularga davlat tomonidan madad berilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati :

1. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 06.07.2022 yildagi PF-165-son.*
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining —Ishlab chiqarishga innovatsion loyihalar va texnologiyalarni tatbiq etishni rag‘batlartirish bo‘yicha qo‘shimcha choralar haqidagi‖ Qarori - —Xalq so‘zi‖, 2008 yil, 16 iyul.
3. Инновационная экономика: лекция / сост. А.И. Попов. - Тамбов : Издво Тамб. гос. техн. ун-та, 2008.
4. Инновационное развитие: Экономика, интеллектуальные ресурсы, управление знаниями.‖ Под редакцией Б.З Милнера, Инфра-М,2010.
5. Abror Ro‘zimurod o‘g R. et al. O ‘ZBEKISTONDA PUL-KREDIT TIZIMI VA UNI MODERNIZATSIYALASH YO ‘LLARI //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA

ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 13. – С. 251-258.

6. Цой М. П. и др. ПРОДВИЖЕНИЕ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 292-295.
7. Abror Rashidov Ruzimurod ugli. (2022). THE IMPORTANCE OF THE DEVELOPMENT OF SERVICE SECTOR IN THE IMPROVEMENT OF THE COUNTRY. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 1(11), 106–115.
8. E'tiborxon Mallayeva M. иллик ва миллий-маънавий? адриятларнинг тикланиши //Архив Научных Публикаций JSPI. – 2020.
9. Khakimov O. M. Issiq-quruq iqlim sharoiti uchun asfaltbeton tarkibini tanlash //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 2. – С. 241-247.
10. Носиров Б., Носирова Ф. Ўзбекистонда умумий овқатланиш тизимининг шаклланиши ва унга аҳоли эҳтиёжининг ортиб бориши (совет ҳукумати йилларида) //ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ. – 2020. – Т. 3. – №. 3.
11. Насиров Б. XX АСРНИНГ 30-80 ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕКИСТОНДА УМУМИЙ ОВҚАТЛАНИШ ТИЗИМИ ТАРИХИДАН //ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ. – 2022. – Т. 5. – №. 1.
12. Abdukarimov D. A. et al. 7 FREE BEST OPEN SOURCE DATABASE MANAGEMENT SYSTEMS //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – Т. 7. – С. 40-47.
13. Fayzullaev S. B. Fostering the qualities of agility of basketball pupils in Uzbekistan //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 5. – С. 1171-1176.
14. Норбеков Х., Туйчиева Н. Формирование конкурентных преимуществ компании //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 589-592.
15. Xaydarov, B., & Saitov, S. (2022). Raqamli iqtisodiyot tushunchasi va afzalliklari. *Zamonaviy Innovatsion Tadqiqotlarning Dolzarb Muammolari Va Rivojlanish*

Tendensiyalari: Yechimlar Va Istiqbollar, *1*(1), 634–635. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5390

16. Uchkun S., Dilshod N. PROCESS OF IDENTIFYING THE SIGNIFICANT ACCOUNTS IN THE REVENUE CYCLE //Journal of marketing, business and management. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 32-36.
17. Мухтаров Б. А. Имитационная система прогнозирования факторов в легкой промышленности //Молодой ученый. – 2017. – №. 40. – С. 122-124.
18. Мухтаров Б. А., Ортиков Ё. Ю. Культурное и экономическое развитие туризма в Узбекистане //Молодой ученый. – 2016. – №. 14. – С. 375-378.
19. Nizametdinov A., Ahmedova H. Elektron ta ‘lim metodologiyasi rivojlantirishning usullari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 29-31.
20. Akramovich N. A. HISTORY, SUBJECT AND OBJECT OF FORMATION OF" MACROECONOMICS" //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 10. – №. 1. – С. 209-210.
21. Ogli R. A. R. THE DIFFERENCE BETWEEN THE CONCEPTS OF DATABASE AND DATABASE MANAGEMENT SYSTEM //Archive of Conferences. – 2022. – С. 33-34.
22. Abdukarimov A., Rashidov A. Ma'lumotlar bazalarining–biznesni tashil etish va samaradorligini oshirishdagi roli //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 132-135.
23. Rashidov A. IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISHDA NOTARIF USULLARINING ORNI VA AHAMIYATI //Архив научных исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 1.
24. Рашидов У., Рашидов А. Iqtisodiyotni tartibga solishda notarif usullarining orni va ahamiyati //Вопросы усиления позиций Узбекистана в международной торговле и оптимизации его интеграции в мировой рынок в условиях глобальной трансформации. – 2021. – Т. 1. – №. 1. – С. 53-58.

25. Abror Ro’zimurod o’g R. et al. JIZZAX VILOYATI IQTISODIY O’SISH KO'RSATKICHLARI YOKI JARAYONLARI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 5. – №. 1. – C. 20-22.
26. Ismailova, Nilufar Sabitjanovna, Uchqun Ro’Zimurod O’G’Li, and Abror Ro’Zimurod O’G’Li. "JAHON SAVDO TASHKILOTIGA QO'SHILISH: QO'SHILISH JARAYONI HAMDA UNING QONUNIY ASOSLARI." Scientific progress 2.2 (2021): 1095-1098.
27. Rashidov U., Rashidov A., Naimov S. Modern Views on the Problems of Management Accounting in Logistics System //" ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM. – 2022. – C. 276-283.
28. Rashidov U., Rashidov A. Assessment of Costs For the Quality of Logistics Activities //INTERNATIONAL JOURNAL OF BUSINESS DIPLOMACY AND ECONOMY. – 2022. – T. 1. – №. 3. – C. 39-43.
29. To‘ychiyeva N. AGRAR SOHADA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISHGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR //INTERNATIONAL CONFERENCES. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 53-56.
30. To'ychiyeva N. Elektron Ta ‘lim Tizimining Afzalliklari Va Kamchiliklari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 40-41.